ZAMONAVIY IQTISODIYOT VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR
Ilmiy-uslubiy elektron jurnali — Sharq universiteti
ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

O‘ZBEKISTONDA DAVLAT QIMMATLI QOG‘OZLARI IQTISODIY MOHIYATI VA QO‘LLANILISH XUSUSIYATLARI

Muhammedova Zarina Murodovna, dotsent,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Normurodova Zuhra Orzimurod qizi,
“Moliya va moliyaviy texnologiyalar” kafedrasi talabasi,
Samarqand iqtisodiyot va servis institute
DOI: https://doi.org/10.66493/hvj6q028

Annotatsiya: Maqolada davlat qimmatli qog‘ozlarining iqtisodiy mohiyati, ularning moliya tizimidagi o‘rni hamda qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat qimmatli qog‘ozlari orqali byudjet taqchilligini moliyalashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va kapital bozorini rivojlantirish jarayonlari yoritilgan. O‘zbekiston Respublikasida qimmatli qog‘ozlar bozorining so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari statistik ma’lumotlar asosida o‘rganilib, ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri baholangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, bozor infratuzilmasining takomillashuvi va xorijiy investorlar ishtirokining ortishi moliyaviy tizim barqarorligini kuchaytirgan.

Kalit so‘zlar: Davlat qimmatli qog‘ozlari, kapital bozori, investitsiya, emissiya, birja savdolari, moliyaviy instrumentlar, byudjet taqchilligi, investitsion muhit, obligatsiyalar, iqtisodiy barqarorlik.

Kirish

Davlat qimmatli qog‘ozlari zamonaviy moliya tizimining eng muhim instrumentlaridan biri bo‘lib, ular davlatning moliyaviy siyosatini amalga oshirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu instrumentlar orqali davlat byudjet taqchilligini qoplash, iqtisodiyotga qo‘shimcha resurslar jalb etish hamda moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, qimmatli qog‘ozlar

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

bozori investorlarga ishonchli daromad manbaini taqdim etib, kapitalni samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, global iqtisodiyotda kapital bozorlarining roli tobora ortib bormoqda va davlat qimmatli qog‘ozlari ushbu jarayonning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish, uning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bois davlat qimmatli qog‘ozlarining iqtisodiy mohiyatini o‘rganish, ularning bozor mexanizmidagi o‘rnini tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili

Davlat qimmatli qog‘ozlari zamonaviy moliya tizimining muhim instrumenti sifatida davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish va investitsion muhitni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzu yuzasidan ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilib, unda davlat qimmatli qog‘ozlarining iqtisodiy mohiyati va qo‘llanilishiga oid turli yondashuv va nazariy qarashlar ilgari surilgan.

Xususan, Matyoqubovna G.B. va Xamza X.Q. lar tomonidan yozilgan “O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorining hozirgi holati tahlili va bu bozorda kapital jalb qilishning istiqbollari” nomli ilmiy maqolasida “Hozirgi vaqtda qimmatli qog‘ozlar eng moslashuvchan moliyaviy instrumentlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Qimmatli qog‘ozlar fuqaro huquqlarining obyekti sifatida tovar-pul munosabatlarini rivojlantirish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlatirishga yaqindan yordam beradi. Avvallari, rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida qimmatli qog‘ozlarning ayrim turlari mulk munosabatlarida ishlatilgan(obligatsiyalar, lotoreya chiptalari, tashqi savdo aylanmasidagi veksellar). Hozirgi kunga kelib esa iqtisodiyotni bozor iqtisodiyotiga

DOI: https://doi.org/10.66493/hvj6q028
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

o‘tkazish va qimmatli qog‘ozlar bozorini shakllantirish qimmatli qog‘ozlarning turlarini qayta tiklash va yangi turlarini yaratishni talab qildi.” deb aytgan

Qurbonov J.J. va Sodikov A.R. lar tomonidan yozilgan “Davlat qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish istiqbollari” nomli ilmiy maqolasida ham “Ushbu maqolada davlat qimmatli qog‘ozlari bozorining mohiyati va ahamiyati, shuningdek, davlat qimmatli qog‘ozlarining mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, investitsiyalarni jalb qilish va byudjet taqchilligini qoplash vositasi sifatida tutgan o‘rni tahlil qilingan. Shu bilan birga, iqtisodchi olimlarning ushbu mavzuga oid ilmiy qarashlari o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog‘ozlarini mahalliy bozorlarga joylashtirish hamda undan foydalanish bo‘yicha so‘nggi yillardagi statistik ma’lumotlar tahlil qilingan. Bundan tashqari, davlat qimmatli qog‘ozlarining investitsion jozibadorligini oshirish choralari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.” deb aytib o‘tgan.

Bundan tashqari, Qodirova X.T. tomonidan yozilgan “Development of the Government Securities Market in Uzbekistan” nomli maqolasida “Maqolada fan rivojlanishining nazariy jihatlari ko‘rib chiqiladi moliya bozori va, xususan, hukumatning uning segmentlaridan biri qimmatli qog‘ozlar bozori. Davlat qimmatli qog‘ozlarining xususiyatlari va xususan davlat obligatsiyalari berilgan. Qonunlarni ko‘rib chiqdi va shakllantirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha hukumat qarorlari davlat qimmatli qog‘ozlari bozori, moliya bozoriga oid adabiyotlarni ko‘rib chiqdi va, xususan, bu mavzu. Davlat qimmatli qog‘ozlarining hozirgi holati bozor tahlil qilinadi. Yevroobligatsiyalar chiqarishga, ularning joylashtirish, geografiya va narxlash. Hukumat qarorining ilovalari yevroobligatsiyalarni joylashtirishdan olingan mablag‘larni joylashtirish bo‘yicha hisobga olinadi. Respublikaga berilgan xalqaro tashkilotlar reytingi O‘zbekiston hisobga olinadi. Bu borada muayyan xulosa va takliflar bildirildi davlat qimmatli qog‘ozlari bozorining hozirgi holati va uning keyingi holati o‘g‘risida rivojlanish.” deb aytgan.

DOI: https://doi.org/10.66493/hvj6q028
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Qo‘shimcha qilib aytganda, Valieva O.O. va Rejabbaev S.U. lar ham “Government securities market of the republic of uzbekistan: current state and development prospects” nomli maqolasida “Davlat qimmatli qog‘ozlar bozori makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat qarzini samarali boshqarish va pul-kredit siyosatini amalga oshirish mexanizmlarini ta’minlash orqali muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda yaqinda bozor funksionalligi va shaffofligini oshirishga qaratilgan muhim islohotlar va tartibga solish sohasidagi o‘zgarishlar amalga oshirildi.” deb aytadi.

Tahlil va natijalar

Davlat qimmatli qog‘ozlari zamonaviy moliya tizimining muhim instrumentlaridan biri bo‘lib, ular orqali davlat o‘zining byudjet taqchilligini moliyalashtiradi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu moliyaviy vositalar investorlarga ishonchli va nisbatan past riskli daromad manbai sifatida namoyon bo‘lib, kapital bozorining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, davlat qimmatli qog‘ozlarining iqtisodiy mohiyati va qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganish mamlakat moliya siyosatini samarali yuritish hamda investitsion muhitni yaxshilashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham qimmatli qog‘ozlar bozori, uning aylanmalari va qo‘llanilish xususiyatlari bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, asosiylaridan biri O‘zbekiston Respublikasining 03.06.2015-yildagi O‘RQ-387-son “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha qabul qilingan qarorni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu mazkur qarordan ko‘zlangan asosiy maqsad qimmatli qog‘ozlar bozori sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish, bozorning shaffofligi, barqarorligi va samaradorligini ta’minlashdan iborat. Shuningdek, unda qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, joylashtirish va muomalaga kiritish tartiblarini belgilash, investorlar huquqlarini himoya qilish, bozor ishtirokchilari faoliyatini

DOI: https://doi.org/10.66493/hvj6q028
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)


muvofiqlashtirish hamda moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish kabi muhim vazifalar nazarda tutilgan. Shu bilan birga, qonun mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, kapital bozorini rivojlantirish va iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mazkur qonun qabul qilinishidan avval O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozori mavjud bo‘lsa-da, uning rivojlanish darajasi yetarli emas edi hamda iqtisodiy mohiyati to‘liq shakllanmagan edi. Bozor infratuzilmasining sust rivojlanganligi, normativ-huquqiy bazaning yetarli darajada takomillashmaganligi, investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining zaifligi kabi muammolar mavjud edi. Shuningdek, aholining moliya bozori instrumentlariga nisbatan ishonchi past bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar orqali investitsiya jalb qilish imkoniyatlari cheklangan edi. Qonun qabul qilingandan so‘ng qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish tizimi sezilarli darajada takomillashtirildi. Qonunda qimmatli qog‘ozlarning turlari, ularni chiqarish, joylashtirish va muomalaga kiritish tartiblari aniq belgilab berildi hamda bozor ishtirokchilari faoliyati huquqiy jihatdan mustahkamlandi. Natijada investorlar huquqlarini himoya qilish kuchaydi, axborot oshkoraligi ta’minlandi va moliyaviy infratuzilma izchil rivojlana boshladi.

Natijada mamlakatda kapital bozorining faolligi oshib, davlat va korporativ qimmatli qog‘ozlar chiqarilishi kengaydi, investitsion muhit yaxshilandi. Xususan, davlat qimmatli qog‘ozlari, korporativ obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali iqtisodiyotga qo‘shimcha moliyaviy resurslar jalb etish imkoniyati kengaydi. Umuman olganda, mazkur qonun qimmatli qog‘ozlar bozorining institutsional rivojlanishiga turtki berib, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim omillardan biriga aylandi.

DOI: https://doi.org/10.66493/hvj6q028
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)



1-rasm. “2022-2025-yillarda O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori”

Birinchi 1-diagrammada 2022-2025-yillarda birja savdolari va emissiya hajmida trln so‘m bo‘yicha oralig‘ida aniq o‘sish tendensiyasi kuzatildi. Birja savdolari hajmi 2022-yilda taxminan 2,5 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda 3 trln. so‘mga yetgan. Keyingi yillarda keskin o‘sish kuzatilib, 2024-yilda qariyb 9,5-10,0 trln. so‘mga, 2025-yilda esa 12,5 trln. so‘mga yetgan. Shuningdek, emissiya hajmida ham barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilib oshib borgan: 2022-yilda 5,5 trln. so‘m atrofida bo‘lsa, 2023-yilda 7,5 trln. so‘mga, 2024-yilda 14,0 trln. so‘mga, 2025-yilda esa 17 trln. so‘mga yetgan. Bu holat moliya bozorida faollik kuchayganini va kapital jalb qilish hajmi sezilarli darajada kengayganini ko‘rsatadi.

2-diagrammada “Xorijiy investorlar ulushi foizda ”da ham yillar kesimida o‘sish dinamikasi keltirilgan aks etgan. Unda 2022-yilda xorijiy investorlar ulushi taxminan 15% atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 20% ga yetgan. 2024-yilda bu ko‘rsatkich 30% ga yaqinlashgan, 2025-yilda esa 35% atrofida shakllangan. Bu tendensiya

DOI: https://doi.org/10.66493/hvj6q028
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

mamlakat moliya bozoriga xalqaro investorlar qiziqishi ortib borayotganini va investitsion muhitning bosqichma-bosqich yaxshilanayotganini anglatadi. Umuman olganda, ikkala diagramma ham bozorning kengayishi va investitsion faollikning kuchayishini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan tahlillar natijasida 2022-2025-yillar davomida birja savdolari va emissiya hajmi barqaror va sezilarli darajada o‘sib borgani aniqlandi. Xususan, emissiya hajmining tez sur’atlarda oshishi kapital bozorining faollashganini, birja savdolaridagi o‘sish esa investitsion operatsiyalar kengayganini ko‘rsatadi. Shuningdek, xorijiy investorlar ulushining yildan-yilga ortib borishi mamlakat moliya bozoriga bo‘lgan ishonch mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, tahlil natijalari moliyaviy bozorning rivojlanish tendensiyasi ijobiy ekanligini tasdiqlaydi.

O‘rganishlar natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, birja savdolari hajmini yanada oshirish uchun moliyaviy instrumentlar turlarini kengaytirish va yangi investitsion mahsulotlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchidan, emissiya jarayonlarini soddalashtirish va korporativ obligatsiyalar bozorini rivojlantirish orqali korxonalar uchun kapital jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Uchinchidan, xorijiy investorlar ishtirokini yanada oshirish uchun investitsion muhitni yaxshilash, huquqiy kafolatlarni kuchaytirish va shaffoflik darajasini oshirish zarur.

To‘rtinchidan, raqamli moliya platformalarini rivojlantirish va birja operatsiyalarini to‘liq avtomatlashtirish orqali bozor samaradorligini oshirish mumkin.

DOI: https://doi.org/10.66493/hvj6q028

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Ushbu takliflar o‘rganishlar natijasida ishlab chiqildi va moliyaviy bozorni yanada barqaror hamda raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Matyoqubovna G.B. va Xamza X.Q. “O‘zbekistonda qimmatli qog‘ozlar bozorining hozirgi holati tahlili va bu bozorda kapital jalb qilishning istiqbollari”

[2] Qurbonov J.J. va Sodikov A.R. “Davlat qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirish istiqbollari” https://zenodo.org/records/14977895

[3] Qodirova X.T. “Development of the Government Securities Market in Uzbekistan” https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd33155.pdf

[4] Valieva O.O. va Rejabbaev S.U. “Government securities market of the republic of uzbekistan: current state and development prospects” https://interfinance.tsue.uz/wp-content/uploads/2025/06/2Rejabbaev-Sarvar.pdf

[5] O‘zbekiston Respublikasining, 03.06.2015 yildagi O‘RQ-387-son “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risida” https://lex.uz/ru/docs/-2662539

[6] O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozori 2022–2025 https://stat.uz/ , https://uzse.uz/ , https://www.imf.org/en/Data , https://data.oecd.org/

[7] https://cbu.uz/

[8] https://data.worldbank.org/

[9] https://www.mf.uz/

DOI: https://doi.org/10.66493/hvj6q028
© Sharq universiteti, 2026